

# THE IMPORTANCE OF DEVELOPING CREATIVITY IN STUDENTS

Hilola Ziyabayeva

1st Year Master's Student, Faculty of Pedagogy,  
Alfraganus University Tashkent, Uzbekistan

Mukhlisa Omonova

Associate Professor, Department of "Pedagogy and  
Psychology", Alfraganus University Tashkent, Uzbekistan

## **Abstract:**

This article discusses the importance of developing creativity in students, the formation of teachers' creative abilities and their role in their work. It discusses the creative qualities of a teacher. It discusses creative thinking in the educational process, the creation of various ideas, and actions to increase the effectiveness of the lesson through discussions.

**Keywords:** Creativity, creative personality, creative thinking, creativity in education.

## **Introduction**

### **TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Ziyabayeva Xilola Rixsitullayevna

Alfraganus Universiteti Pedagogika fakulteti 1kurs  
Magistranti Toshkent, O'zbekiston

Omonova Muxlisa Do'stnazar qizi

Alfraganus Universiteti "Pedagogika va psixologiya"  
kafedrası dotsent v. b. Toshkent, O'zbekiston

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada talabalarda kreativlikni rivojlantirishning ahamiyati pedagoglarning kreativlik qobiliyatini shakllantirish va uning ish faoliyatidagi o'rni. Pedagogning kreativ sifatlari haqida gap boradi. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlash, har xil g'oyalar yaratish, munozaralar o'tqizib dars samarasini oshirish uchun qilinadigan harakatlar to'g'risida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, kreativ shaxs, kreativ fikrlash, ta'limda ijodkorlik.

## **Kirish**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kreativ fikrlash har bir sohaga ta'sir ko'rsatadigan muhim ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda talabalar faqatgina nazariy bilimlarga ega bo'lish bilan cheklanib qolmay, balki mustaqil, ijodiy va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishlari kerak. Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish (fantaziya).

Talabalar orasida kreativ fikrlashni rivojlantirish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- Muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati – talabalar murakkab vaziyatlarda noodatiy yechimlarni topa oladilar.
- Innovatsion yondashuv – yangi texnologiyalar va usullarni yaratish va qo'llash imkoniyatini oshiradi.
- Ijtimoiy moslashuvchanlik – kreativ tafakkur rivojlangan talaba jamiyatda tez moslasha oladi va turli vaziyatlarda samarali ishlashni o'rganadi.
- Akademik va kasbiy muvaffaqiyat – ijodiy yondashuv talabaning ilmiy izlanishlar va kelajakdagi kasbiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kreativlikni rivojlantirish usullari

Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. Kritik fikrlashni rivojlantirish. Talabalar masalalarga turli nuqtai nazardan qarashni va mantiqiy fikrlashni o'rganishlari lozim. Munozaralar, tahliliy mashg'ulotlar va masala yechish usullari bu borada samarali hisoblanadi.
2. Ijodiy muhit yaratish. Ta'lim muassasalarida ochiq va erkin fikrlash muhitini yaratish talabalar kreativligini rivojlantirishga yordam beradi. Guruh ishlari, laboratoriya tajribalari va amaliy loyihalar orqali talabalar yangi g'oyalarni sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.
3. Ilmiy va texnologik innovatsiyalarni qo'llash. Yangi texnologiyalar va zamonaviy ta'lim vositalari orqali talabalarning ijodiy tafakkurini oshirish mumkin. Dasturlash, robototexnika, dizayn va san'at kabi yo'nalishlarda kreativ yondashuvlar katta ahamiyatga ega.
4. Erkin fikrlash va eksperiment qilish imkoniyatini berish. Talabalarga mustaqil ravishda loyihalar ustida ishlash va yangi tajribalar o'tkazish imkoniyati berilsa, ularning kreativligi ortadi. Masalan, startap loyihalar, tadbirkorlik mashg'ulotlari va ilmiy-tadqiqot ishlari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nik-

Ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashq-

lar, topshiriqlarni bajarish;

- keyslar bilan ishlash;
- guruhiy ish shakllari va dehatlarni tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyushtirish;
- to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va hokazo.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarning shakllanganligi; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish; ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar.

### **Xulosa va tavsiyalar.**

Talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirish ularning nafaqat ta'lim jarayonidagi, balki hayotdagi muvaffaqiyatlarini ham oshiradi. Ijodiy yondashuvga ega bo'lgan talaba har qanday kasb sohasida o'ziga xos yutuqlarga erishishi mumkin. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalari kreativlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Talabalarga ijodiy fikrlashni shakllantirish orqali ularning jamiyatga foydali bo'lishiga ko'maklashish mumkin. Shu bois har bir o'qituvchi va ota-ona talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga yordam berishi lozim. Talabalarda kreativlikni rivojlantirish – zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biridir. Kreativ tafakkurga ega bo'lgan yoshlar nafaqat akademik sohada, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham muvaffaqiyatga erishadilar. Bu esa ularning muammolarga yangicha yondashishiga, innovatsion g'oyalarni ilgari surishiga va jamiyat rivojiga hissa qo'shishiga imkon yaratadi. Shuning uchun ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va ota-onalar kreativ muhit yaratish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy loyihalarga keng yo'l ochish orqali talabalar ijodiy salohiyatini oshirishlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
2. Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари сосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.
3. Maslow A. The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.
4. Хуторской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-
5. ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58–64
6. <https://tsbm.uz/uploads/news/49e2a80e5889f9ea332de232a2928e17.jpg>  
<http://psycnet.apa.org/record/1988-98009-002> (accessed on 29 March 2018).
7. Begetto, R. and M. Karwowski (2017), “Toward untangling creative self-beliefs”, in Karwowski Tompkins, G. (1982), “Seven Reasons Why Children Should Write Stories”, Language Arts, Vol. [3] 59/7, pp.718–721,
8. <https://www.jstor.org/stable/41405103>. A. A. Ismoilov, X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”. Toshkent- 2021.
9. Omonova, M. (2023). Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash masalalari. Mugallim, 1(3), 80-82.
10. Omonova, M. (2023). Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish. UzMU xabarлари, 1(7), 143-145.
11. Khimmataliev, D., & Omonova, M. (2023). Organizing independent activity of students based on individual approach. Science and innovation, 2(B7), 97-100.
12. Khimmataliev, D., Botirova, S., & Omonova, M. (2023). Steps of teaching students to critical thinking based on an individual approach. Science and innovation, 2(B8), 91-93.
13. Omonova, M. D. (2023). Pedagogical possibilities of information and educational technologies in the development of critical thinking of students. Academic research in educational sciences, 4(4), 532-537.
14. Khimmataliev, D. O., Khakimov, J. O., & Omonova, M. D. Q. (2021). A paradigm shift from “teaching” to learning. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 170-174.